



## **JIZZAX VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKIOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT**

*2020- yil 1- iyul holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)*



## Mamlakatimizda oxirgi yillarda tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilayotgan e'tibor

*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*

*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ishbiarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



### Yuridik shaxs:

Yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot **yuridik shaxs** hisoblanadi.

## Ro'yxatdan o'tgan tijorat korxonalari soni (tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

10 466



Mas'uliyati cheklangan  
jamiyat

1 043



Oilaviy korxonona

145



Unitar korxonona

4 706



Xususiy korxonona

20



Aksiyadorlik jamiyati

276



Boshqa korxonalar

*mas'uliyati cheklangan jamiyat  
birlik*



*xususiy korxonona  
birlik*




### Mas'uliyati cheklangan jamiyat


Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (1- iyul holatiga ko'ra)



## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni

(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



### Aksiyadorlik jamiyati:


Ustav fondi muayyan aksiyalar soniga bo'lingan jamiyat – aksiyadorlik jamiyati hisoblanadi; – aksiyadorlik jamiyatining ishtirokchilari (aksiyadorlar) uning majburiyatlari bo'yicha javob bermaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zarar uchun o'zlariga qarashli aksiyalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar.

Aksiyalar haqini batamom to'lamagan aksiyadorlar, aksiyadorlik jamiyatining majburiyatlari bo'yicha, o'zlariga qarashli aksiyalar qiymatining to'lanmagan qismi doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Aksiyadorlik jamiyatining firma nomida, jamiyatning nomi hamda bu jamiyat aksiyadorlik jamiyati ekanligi o'z ifodasini topishi kerak.

## Yangi tashkil etilgan korxonona va tashkilotlar soni


(yanvar- iyun oylarida, birlikda)



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni (iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oylarida)




## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha tarkibi (2020- yil yanvar-iyun oylarida, umumiy sonidagi ulushi)




2020- yilning yanvar-iyun oylarida 2 005 tadan ortiq korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi. Shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 1 364 ta, xususiy korxonalar – 242 ta, oilaviy korxonalar – 260 ta, muassasalar – 38 ta va boshqalar – 101 tani tashkil etdi.

## Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligida faoliyat koʻrsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(2020- yil 1- iyul holatiga koʻra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofimlar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




### Oilaviy korxonalar



### Faoliyat koʻrsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



### Xususiy korxonalar






## Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **13,4** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari




**13,1** foizga oshdi



### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar




### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**15,2** foizga oshdi



### Oilaviy korxonalar




**36,5** foizga oshdi




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan o'sish kuzatilmadi



### Xususiy korxonalar



**1,0** foizga oshdi




## Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **23,6** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**23,5** foizga oshdi



### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




**31,2** foizga oshdi



### Oilaviy korxonalar




**2,0** martaga oshdi




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **40,0** foizga oshdi



### Xususiy korxonalar




**4,9** foizga oshdi




## Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




### Mikrofirmalar




### Kichik korxonalar



### Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




### Oilaviy korxonalar




### Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



### Xususiy korxonalar



## Oilaviy korxonalar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 1 043 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 329 taga yoki 146,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 975 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 293 taga yoki 143,0 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2020- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 260 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 86 taga yoki 149,4 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2020- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 10 466 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2 089 taga yoki 123,2 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 076 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 987 taga yoki 124,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- iyun oylarida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 364 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 255 taga yoki 15,8 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra 196 tani tashkil etib, ulardan 190 tasi yoki 96,9 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 30 taga yoki 118,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2020- yil yanvar- iyun oylarida Jizzax viloyatida 14 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni

(1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

|  | 2016- yil | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil | 2020- yil |
|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Jami   | 4 042     | 4 942     | 5 944     | 8 089     | 10 076    |
| <i>shu jumladan:</i>                               |           |           |           |           |           |
| Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi                 | 518       | 785       | 1 072     | 1 391     | 1 784     |
| Sanoat   | 765       | 999       | 1 202     | 1 629     | 1 876     |
| Qurilish   | 588       | 711       | 823       | 1 131     | 1 484     |
| Savdo  | 999       | 1 153     | 1 389     | 2 023     | 2 717     |
| Tashish va saqlash                                 | 239       | 303       | 335       | 426       | 470       |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar          | 238       | 315       | 378       | 465       | 557       |
| Axborot va aloqa                                   | 41        | 55        | 57        | 88        | 100       |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 42        | 57        | 79        | 109       | 130       |
| Boshqa turlar                                      | 612       | 564       | 609       | 827       | 958       |

## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

|   | 2016- yil | 2017- yil | 2018- yil | 2019- yil  | 2020- yil  |
|---|-----------|-----------|-----------|------------|------------|
| <b>Jami</b>   | <b>74</b> | <b>71</b> | <b>99</b> | <b>164</b> | <b>190</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                                      |           |           |           |            |            |
| <b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>                 | 3         | 4         | 14        | 28         | 29         |
| <b>Sanoat</b>   | 58        | 55        | 61        | 91         | 103        |
| <b>Qurilish</b>   | 3         | 2         | 3         | 8          | 8          |
| <b>Savdo</b>  | 5         | 4         | 12        | 20         | 28         |
| <b>Tashish va saqlash</b>                                 | 2         | 3         | 3         | 4          | 4          |
| <b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>          | -         | -         | -         | 5          | 4          |
| <b>Axborot va aloqa</b>                                   | 1         | 1         | 1         | 3          | 4          |
| <b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b> | -         | -         | -         | -          | 1          |
| <b>Boshqa turlar</b>                                      | 2         | 2         | 5         | 5          | 9          |

## Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)





**Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi  
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**  
(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

|                        | Jami       | shundan:           |                    |
|------------------------|------------|--------------------|--------------------|
|                        |            | qo'shma korxonalar | xorijiy korxonalar |
| <b>Jizzax viloyati</b> | <b>190</b> | <b>121</b>         | <b>69</b>          |
| <b>Jizzax shahri</b>   | <b>67</b>  | <b>48</b>          | <b>19</b>          |
| <i>tumanlar:</i>       |            |                    |                    |
| <b>Arnasoy</b>         | <b>7</b>   | <b>5</b>           | <b>2</b>           |
| <b>Baxmal</b>          | <b>8</b>   | <b>5</b>           | <b>3</b>           |
| <b>G'allaorol</b>      | <b>16</b>  | <b>10</b>          | <b>6</b>           |
| <b>Sharof Rashidov</b> | <b>17</b>  | <b>9</b>           | <b>8</b>           |
| <b>Do'stlik</b>        | <b>3</b>   | <b>1</b>           | <b>2</b>           |
| <b>Zomin</b>           | <b>16</b>  | <b>9</b>           | <b>7</b>           |
| <b>Zarbdor</b>         | <b>3</b>   | <b>2</b>           | <b>1</b>           |
| <b>Zafarobod</b>       | <b>8</b>   | <b>2</b>           | <b>6</b>           |
| <b>Mirzacho'l</b>      | <b>2</b>   | <b>-</b>           | <b>2</b>           |
| <b>Paxtakor</b>        | <b>9</b>   | <b>8</b>           | <b>1</b>           |
| <b>Forish</b>          | <b>22</b>  | <b>17</b>          | <b>5</b>           |
| <b>Yangiobod</b>       | <b>12</b>  | <b>5</b>           | <b>7</b>           |

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Jizzax shahrida 67 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 35,3 %), Forish 22 ta (11,6 %), Sharof Rashidov 17 tani (8,9 %), G'allaorol 16 ta (8,4 %), Zomin 16 ta (8,4 %), Yangiobod 12 ta (6,3 %) hamda Paxtakor tumanlarida 9 tani (4,7 %) tashkil etadi.

## Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2020- yil 1- iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Jizzax shahri (29,7 %), Sharof Rashidov (16,2 %), Zomin (8,1 %), G'allaorol (7,9 %), Forish (7,0 %), Baxmal (6,0 %), Zarbdor (4,6 %), Paxtakor (4,2 %), Do'stlik (4,1 %), Mirzacho'l (3,6 %), Arnasoy (3,1 %), Zafarobod (3,1 %) va Yangiobod (2,4 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2020- yil yanvar- iyun oylarida, birlikda)

2020- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Jizzax shahrida (20,8 %), Sharof Rashidov (12,9 %), G'allaorol (9,6 %), Forish (8,3 %), Baxmal (7,8 %), Zomin (7,5 %), Zarbdor (6,4 %), Do'stlik (5,8 %), Paxtakor (5,2 %), Zafarobod (4,6 %), Yangiobod (3,9 %), Mirzacho'l (3,8 %) va Arnasoy (3,4 %) tumanlari ulushiga ega.



## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.

## Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Jizzax viloyati statistika boshqarmasining [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Jizzax viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
**Tel.: 72 221-51-24**